

## **Qishloq xo'jaligi vazirligida 2025-yil yarim yillik korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi haqida**

### **UMUMIY HISOBOT**

#### **I. Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi bajarilgani to'g'risida umumiy axborot**

Qishloq xo'jaligi vaziri tomonidan 2025-yil 10-yanvarda "Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limining 2025-yil uchun ish rejasi" tasdiqlangan, ish rejada Qishloq xo'jaligi vazirligi markaziy apparati, xududiy bo'linmalari, tizim tashkilotlari va muassasalarida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish borasida amalga oshiriladigan vazifalar belgilangan hamda bu vazifalarni o'z muddatlarida bajarilishi bo'yicha Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi tomonidan har chorak yakuni bo'yicha doimiy monitoring olib borilmoqda.

Vazirlikning 2025-yil 24-martdagi 04/15-06/465-son xatiga asosan Vazirlik xududiy bo'linmalari, tizim tashkilotlari va muassasalari tomonidan joriy yilning 1-choragida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish borasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Vazirlik markaziy apparati Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limiga ma'lumotnoma va hisobotlar taqdim qilindi.

Qishloq xo'jaligi vaziri tomonidan 2025-yil 27-fevralda tasdiqlangan 224-son "Qishloq xo'jaligi vazirligi tizimidagi tarkibiy bo'linmalar va tizim tashkilotlarda Korrupsiyaga qarshi kurashish, Manfaatlar to'qnashuvini oldini olish yo'nalishida tashkil etilgan ishlar natijadorligini o'rganish, amaliy yordam berish, davra suhbatlari, seminar-treninglar o'tkazish Grafigi" ishlab chiqilgan.

#### **II. Siyosat va tartib-taomillar**

Qishloq xo'jaligi vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi faoliyatni takomillashtirish va korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini yanada oshirish maqsadida ISO 37001-16 xalqaro standart talablari asosida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 15 ta ichki idoraviy hujjatlar ishlab chiqilgan. Jumladan, Vazirlikning:

Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati;

Xodimlarning Odob-ahloq qoidalari;

Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi nizom va boshqalar.

Ushbu ichki idoraviy hujjatlar bilan Vazirlik tizimida faoliyat olib borayotgan barcha xodimlarni muntazam ravishda tanishtirib borish va tanishtirilganligini imzo qo'yish bilan tasdiqlash amaliyoti joriy qilingan.

Qishloq xo'jaligi vazirligi markaziy apparati, hududiy bo'linmalar, tizim tashkilotlari va muassasalari xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitilishini tashkil qilish bo'yicha Yo'riqnoma yangi tahrirda ishlab chiqildi, tizim tashkilotlari va hududiy bo'linmalarga ijro uchun yuborildi.

### **III. Xavf-xatarlarni baholash**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2022-yil 11-maydagi PQ-240-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosi doirasida hamda "Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubi" talablariga rioya qilgan holda Komplaens-nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi tomonidan "O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi to'g'risida Nizom"da belgilangan har bir funktsiya (*jami 107 ta*) bo'yicha korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash yuzasidan baholash ishlari amalga oshirildi va "E-Anticor.uz" elektron platformasiga joylashtirildi. Baholash natijalariga ko'ra 1 ta funktsiyada "yuqori", 12 ta funktsiyada "o'rta" korrupsiyaviy xavf-xatar aniqlandi. Platforma orqali xavf-xatarlar xaritasi, xavf-xatarlar bilan ishlash dasturi va xavf-xatarga moyil bo'lgan lavozimlar ro'yxati shakllantirildi. Yuqoridagi xujjatlarga xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha choralar amalga oshirilmoqda.

### **IV. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillar**

#### **Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish**

O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-iyndagi "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi 931-sonli Qonuni, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorining 2024-yil 21-oktabrdagi "Mavjud manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi xabarnoma, ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyalar va manfaatlar to'qnashuvini hisobga olish reyestrining namunaviy shakllarini tasdiqlash haqida"gi 65-son buyrug'i talablari asosida Qishloq xo'jaligi vazirining 2024-yil 4-dekabrda 283-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi markaziy apparati, hududiy bo'linmalar, tizim tashkilotlari va muassasalarida manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida nizom" ishlab chiqildi. Nizom talablari asosida Agentlik tizimida manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha xodimlar tomonidan mavjud manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha xabarnoma, ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha yillik hamda yangi ishga qabul qilish vaqtida deklaratsiyani to'ldirish amaliyoti to'liq yo'lga qo'yilgan bo'lib, ushbu tartib barcha boshqaruv xodimlariga nisbatan amal qiladi.

Joriy yilning yanvar oyida xodimlaridan xodimning ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiya qabul qilib olindi va to'ldirilgan deklaratsiyalar tahlil qilib chiqildi. Tahlillar davomida manfaatlar to'qnashuvi holatlari aniqlanmadi.

Shuningdek, vazirlikda xodimning o'zi tomonidan mavjud manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida xabar berish, yani vazirlik xodimining yaqin qarindoshlari va unga aloqador bo'lgan shaxslar mazkur xodimning mehnat qilayotgan tashkiloti bilan huquqiy munosabatga kirishayotganida manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida yozma yoki elektron shaklda xabar berishi tizimi joriy qilindi

## **Korrupsiyaga qarshi qoidalarini tashkilot sharnomalariga kiritish**

Qishloq xo'jaligi vazirligi va kontragentlar bilan tuziladigan xo'jalik shartnomalariga Korrupsiyaga qarshi qoidalarini kiritish joriy qilingan bo'lib, ushbu Korrupsiyaga qarshi qoidalar kiritilmagan shartnomalar bo'yicha kontragentlar bilan shartnomalarni bekor qilish bo'yicha tegishli choralar ko'rilgan.

## **Kontragentlarni tekshirish**

O'zbekiston Respublikasining 22.04.2021-yildagi "Davlat xaridlari to'g'risida" 684-sonli Qonuniga asosan 2025-yil 2-choragida Vazirlik Markaziy apparati tomonidan jami 40 ta shartnoma imzolangan bo'lib shulardan, elektron do'kon orqali 35 dona, to'g'ridan to'g'ri shartnomalar bo'yicha amalga oshiriladigan davlat xaridlari bo'yicha 5 ta shartnomalar tuzilgan, eng yaxshi takliflarni tanlab olish (konkurs), auksion va tender o'tkazilmagan.

To'g'ridan-to'g'ri shartnomalar kommunal xizmatlar, pochta xizmati, aloqa xizmati, qo'riqlash xizmati ko'rsatuvchi yagona yetkazib beruvchi tashkilotlar bilan tuzilgan bo'lib, manfaatlar to'qnashuvi aniqlanmadi.

## **Ishga nomzodlarni tekshirish**

Vazir markaziy apparatiga nomzodlar ishga qabul qilishda nomzodlarning lavozim majburiyatlarini bajarish uchun yetarli bilim va tajribaga egaligi, uning professional faoliyati, boshqa jismoniy va yuridik shaxslar bilan qarindoshlik va tijorat aloqalari, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil emasligi, rahbarlik va moddiy javobgarlik bilan bog'liq lavozimlarga bilimli, halol, vijdonli, qonunga itoatkor xodimlarni tanlab olish joriy qilingan.

Jumaladan, 1-chorak mobaynida vazirlik markaziy apparatiga yangi ishga qabul qilingan 13 nafar nomzodlar ustidan tekshiruvlar o'tkazildi. Tekshiruv natijalari bo'yicha ushbu nomzodlar bo'yicha barcha holatlarda ijobiy xulosalar qabul qilindi.

## **V. Ta'lim va kommunikatsiya**

Vazirlik xodimlari, shu jumladan, ishga yangi qabul qilingan xodimlarni vazirlikning hr.agro.uz platformasi va Vazirlikning Koplaens nazorat telegram kanali orqali Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha muntazam o'qitib borilmoqda.

Joriy yil fevral oyida O'zbekiston Respublikasi hisob palatasi, Bosh prokuratura, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi vakillari ishtirokida o'tkazilgan "Qishloq xo'jaligi vazirligi tashkilotlari tomonidan byudjet intizomiga rioya etilishini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari" mavzusidagi o'quv-seminarda Vazirlik xodimlari qatnashishdi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan tashkil qilingan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashni tashkil etish yuzasidan o'tkazilgan o'quv seminarida Komplayens nazorati bo'limi xodimlari ishtirok etdi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tomonidan 2024-yil dekabr-2025-yil yanvar oyida tashkil etilgan

“Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha samarali idoraviy chora-tadbirlar tashkil etilishini ta'minlash” mavzusidagi 18-soatlik masofaviy malaka oshirish kursida Komplayens nazorat bo'limi xodimlari ishtirok etib, tegishli sertifikatlarga ega bo'lishdi.

Joriy yilning iyun oyida O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi va Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi hamkorlikda ishlab chiqqan “Korrupsiya qarshi kurashish virtual akademiyasi”da vazirlik markaziy apparati va tizim tashkilotlari, hududiy bo'linmalari xodimlarni o'qitish amalga oshirildi. Markaziy apparat 188 nafar, tizimdagi !!! nafar xodim malaka sertifikatiga ega bo'lishdi.

## **VI. Korrupsiyaviy xatti-xarakatlar va huquqbuzarliklar to'risidagi xabarlar**

Vazirlik tizimida Korrupsiya holati haqida tezkor xabar berish imkonini beruvchi 1243 qisqa raqami tashkil etilgan. Ushbu qisqa raqami orqali fuqarolar bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotni yo'lga qo'yilgan, Korrupsiyaviy holatlar haqida ma'lumotlarni qabul qilish amalga oshiriladi.

Shuningdek, Korrupsiya haqida xabar berishga mo'ljallangan vazirlikning “agro.uz” rasmiy veb-sayti, [anticorruption@agro.uz](mailto:anticorruption@agro.uz) elektron pochta manzili, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari va “UzAgroAnticorruptionBot” telegram boti tashkil etilgan.

2025-yilning birinchi yarim yilligida vazirlik markaziy apparatiga korrupsiya faktlariga doir 10 ta murojaat kelib tushgan. Ularning 2 tasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi, 3 tasi O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, 3 tasi Oliy Ta'lim, Fan va Innovatsiyalar Vazirligi orqali, 2 tasi Qishloq xo'jaligi vazirligiga to'g'ridan to'g'ri ravishda kelib tushgan.

Shundan hududlar bo'yicha, Andijon, Qashqadaryo, Surxondaryo, Toshkent viloyatlari va Toshkent shaxridan 1 tadan, Navoiy viloyatidan 2 ta, Samarqand viloyatidan 3 ta murojaat kelib tushgan.

Qishloq xo'jaligi vazirligi markaziy apparatiga kelib tushgan korrupsiyaviy holat mavjudligi tahmin qilingan murojatlar ko'rib chiqilganda murojaatlarda keltirilgan faktlar o'z tasdig'ini topmadi.

## **VII. Monitoring va nazorat**

Vazirlik komplayens-nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi joriy yilning 2-choragida Navoiy viloyati qishloq xo'jaligi boshqarmasi, Qishloq xo'jaligi texnikalarini sinash va sertifikatlash markazida o'rganish hamda seminar treninglar amalga oshirildi. Shuningdek aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan mas'ul xodimlarga tegishli tavsiyalar berildi.

## **VIII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta'sir choralari**

O'tkazilgan tadbirlar yakuni bilan bilan shakllantirilgan ma'lumotlar va xisobotlar tegishli tartibda vazirlik rahbariyatiga taqdim qilindi.

## **IX. Xulosalar**

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, yangi tahrirda qabul qilingan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki idoraviy hujjatlarni tizim tashkilotlari va xududiy bo'linmalar tomonidan ijroga qabul qilinishini ta'minlash, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida ishlab chiqilgan ish reja va dasturlarni o'z vaqtida amalga oshirish, vazirlik tizimi xodimlarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, vazirlik tizimida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish qishloq xo'jaligi sohasida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlarga to'siq bo'layotgan illatlarni bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

## **X. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar va tadbirlar rejasi**

Vazirlik tizimi xodimlari tomonidan sodir etilayotgan qoidabuzarliklarni oldini olish va ularning korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida bilim va ko'nikmalarini yanada oshirish maqsadida mutasaddi tashkilotlar mas'ul xodimlarini jalb etgan holda davra suhbatlari, uquv seminarlarini tashkil qilish hamda korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori bo'lgan lavozimlarda ishlovchi xodimlar faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish, shuningdek agentlik tomonidan amalga oshirilayotgan funksiyalarni raqamlashtirish borasida ishlarni tashkil etish hamda mavjud elektron tizimlarga korrupsiyaviy xavfni kamaytirishni ko'zda tutuvchi o'zgartirishlar kiritib borish rejalashtirilmoqda.

**Komplaens nazorat va  
korrupsiyaga qarshi kurashish  
bo'limi boshlig'i**



**Sh. Teshaboyev**